

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNVERSITETI**

*Qo‘lyozma huquqida*  
**UO‘K: 338.48(575.1)**

**ISLAMOVA NASIBA ADXAM QIZI**

**O‘ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI STRATEGIK  
RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI**

**71010401 – “Turizm (faoliyat turlari bo‘yicha)” mutaxassisligi bo‘yicha**

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan  
**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:** i.f.d., professor I. Axmedov

**Toshkent – 2023**

Magistrlik dissertatsiya ishi "Turizm va servis" kafedrasidan dastlabki himoyadan o'tgan.

9 - sonli bayonnoma « 19 » 04 2023 y.

**Kafedra mudiri,  
i.f.d, professor:**

I. Axmedov

  
imzo

05.05.2023  
sana

**Ilmiy rahbar i.f.d,  
professor:**

I. Axmedov

  
imzo

03.05.23  
sana

**Tinglovchi:**

N. Islamova

  
imzo

05.05.23  
sana

Dissertatsiya O'quv-metodik bo'limda 2021 yil "20" dekabr  
№ 108-V raqami bilan ro'yxatga olingan.

Bo'lim boshlig'i \_\_\_\_\_

## **Annotatsiya**

Mamlakatimizda turizmga alohida e'tibor bergan holda, milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining daromadlari va turmush darajasini oshirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni ta'minlovchi strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishda turistik resurslarining o'rni juda ahamiyatlidir. Shu nuqtai-nazardan olib qaralganda mazkur disertatsiya turizm sohasini strategik rivojlantirish yo'nalishlarini o'rganish va takomillashtirish, imkoniyatlardan to'liq foydalanish bo'yicha tatqiqotlar olib borilgan.

***Kalit so'zlar:** turizm, turizm industriyasi va infratuzilmasi, joylashtirish vositalari, ovqatlantirish servisi, marketing, xalqaro turizm.*

## **Annotation**

With special attention to tourism in our Country, complex measures are being implemented in stages to diversify the national economy, rapidly develop territories, create new jobs, increase the income and standard of living of the population, develop as one of the strategic sectors that ensure the increase of the investment attractiveness of the country.

The role of tourist resources in the development of the tourism sector in Uzbekistan is very significant. From this point of view, research and improvement of the areas of strategic development of the tourism sector and full use of opportunities were carried out.

***Keywords:** tourism, tourism industry and infrastructure, placement tools, feeding service, marketing, international tourism.*

## MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	4
Keltirilgan jadvallar ro'yxati.....	5
Keltirilgan rasmlar ro'yxati.....	5
Keltirilgan qisqartmalar.....	6
<b>KIRISH</b> .....	7
Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	7
Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.....	8
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	9
Tadqiqot ob'ekti va predmeti.....	10
Tadqiqotning ilmiy yangiligi.....	10
Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	11
<b>I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI</b> .....	12
1.1. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi.....	12
1.2. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	14
1.3. Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.....	18
<b>II BOB. METODOLOGIYA</b> .....	24
2.1. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni.....	24
2.2. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar.....	24
2.3. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	25
2.4. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	25
<b>III BOB. TAHLIL VA NATIJALAR</b> .....	27
3.1. O'zbekistonda turizm sohasining holati va strategik rivojlantirishning yo'nalishlari.....	27
3.2. O'zbekistonda turizm sohasini strategik rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmi.....	39
3.3. O'zbekiston turizmini strategik rivojlantirishda turizm bozori faoliyati samaradorligini oshirishning amaliy tahlili.....	49
3.4. O'zbekiston turizm sohasini strategik rivojlantirishda turizm klasteri va innovatsion marketing strategiyalarini qo'llash imkoniyatlari.....	62
<b>XULOSA</b> .....	86
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI</b> .....	90
<b>ILOVALAR</b> .....	94



## KIRISH

### Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

Bugungi kunda butun dunyoda turizm sohasi tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan va eng daromadli biznes turi bo'lib ulgurgan, hozirda uning "jahon yalpi ichki mahsuloti (YaIM)dagi ulushi 10,0 foizni tashkil qiladi. Shuningdek, yaratilayotgan ish o'rinlarining har yettinchisi turizm sohasiga to'g'ri keladi"<sup>1</sup>.

2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini 35-maqсадida "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish vazifalari qo'yilgan<sup>2</sup>.

O'zbekistonda xizmatlar sohasini, xususan, turistik xizmatlar hajmini oshirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Chunonchi, turistik xizmatlar sifatini oshirish maqsadida normativ-huquqiy hujjatlar, standartlar va yangi talablar ishlab chiqildi, boshqaruv tuzilmalari takomillashtirildi. Milliy turizmning rivojlanishiga hamda xorijiy turistlar oqimini ko'paytirishga va turizm xizmatlari eksportini kengaytirishga, mehmonxonalar, sayyohlarni joylashtirishning boshqa vositalari va turizm faoliyati bilan shug'ullanuvchi sub'ektlar sonining ko'payishiga hamda ularda boshqaruvning iqtisodiy jihatlarini tadqiq etishga katta ahamiyat berilmoqda.

Mamlakatimizda turizm sohasini davlat tomonidan rivojlantirish, milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining daromadlari va turmush darajasini oshirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni ta'minlovchi strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Viza rejimining liberallashtirilishi, chet el fuqarolarini ro'yxatga olish tartibining soddalashtirilishi, turizm tarmog'ini startegik rivojlantirish uchun

---

<sup>1</sup> <http://vawilon.ru/statistika-v-turizme/> ma'lumotlari asosida

<sup>2</sup> 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.